

**Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha  
SHARTNOMA №-55**

2022- yil "07" Fevral

Farg'ona tumani

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi hamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Farg'ona tumani Xalq ta'limi bo'limi nomidan rahbar G'.Ortiqov kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomondan va o'z Nizomi asosida ish yurituvchi "Vodil marjona Fayz "x/k (keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan rahbar D.Abdurahmonov ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagi ishlarni bajarish uchun tuzdilar:

**1. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga asosan Farg'ona tumani maktablarni issiqlik tizimini joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi. «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib olib, to'lovlarni amalga oshiradi.

**2. SHARTNOMA BAHOSI**

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyiha-smeta hujjatlariga asosan barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda jami **374 170 000 (uch yuzi etmish to'rt million bir yz etmish ming)** so'mni tashkil etadi.

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bo'lganda «Buyurtmachi» va «Pudratchi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

**3. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI**

3.1. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari to'liq bajarilgandan so'ng, o'zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlari qiymati uchun «Buyurtmachi» pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiy summasini 30 % miqdorida avans to'lovini «Pudratchi» hisob raqamiga o'tkazib beradi. Keyingi hisob-kitoblar haqiqatda bajarilgan ishlar hajmiga qarab, avans mablag'larini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

**4. ISHLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI**

4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari boshlanishi shart. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar G'aznachilik (boshqarmasi) bo'limidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng.

4.2. «Pudratchi» bajariladigan ishlarni amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishini va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. «Pudratchi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

**5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

5.1. «Pudratchi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini to'liq hajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi.

5.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi.

5.3. «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi va bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan Shakl-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. Bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, «Buyurtmachi» tomonidan dalolatnoma rasmiylashtiriladi va **10** kun muddatda «Pudratchi»ga xabar yuboriladi. «Pudratchi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablag'i va o'z kuchi bilan **10** kun davomida bartaraf etiladi.

**6. JARIMALARNING QO'LLANILISHI**

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

6.2. Agar «Pudratchi» tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ta'mirlash belgilangan muddatlarida boshlanmasa va yakunlanmasa, «Pudratchi» bajarilmagan ishlar qiymatining 0.5% miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 50% dan oshmasligi kerak.

6.3. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar o'z muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summaning 0.4% miqdorida har bir muddati o'tgan kun uchun «Pudratchi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi o'tkazib berilmagan mablag'lar summasining 50% dan oshmasligi kerak.

6.4. Jarimalar to'lanishi «Pudratchi»ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

## 7. FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar va boshqa yengib bo'lmamas kuch holatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

## 8. QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmasa iqtisodiy sudi va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun tartibida hal qilinadi.

8.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

8.3. Ushbu shartnoma 2022-yil 07 fevral 2022-yil 31-dekabrgacha tuzildi. Shartnoma ikki tomonlama imzolaniib, g'aznachilik boshqarmasi (bo'lim)da ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

8.4. Shartnomaga buyurtmachining dxarid.uz elektron portaliga e'lon joylashtirish maqsadida ob'yektning loyiha smeta harajatlari uchun sarflangan mablag' Pudratchi tomonidan qoplab berish sharti kiritildi.

## 9. TOMONLARNING HUQUQIY MANZILI VA REKVIZITLARI

«Pudratchi»

«Vodil marjona Fayz» x/k  
(Xizmat ko'rsatuvchi nomi)

Manzil: Farg'ona viloyati Farg'ona tumani  
Yuqori Vodil Charog'on ko'cha №-7 uy  
Tel./faks 91-398-87-73  
x/v 20208000700924473001  
Bank nomi Agro Bank Fargona tuman filiali  
MFO 00507 STIR 305 770 391

Raxbar: D.Abduraxmonov  
(F.I.Sh.)



«Buyurtmachi»

Farg'ona tumani xalq ta'limi bo'limi  
(Byudjetdan mablag' oluvchining nomi)

Manzil: Farg'ona tumani Marg'ilon ko'cha №55  
Tel./faks  
sh/x 100022860302337092100075067  
byudjetdan mablag' oluvchi STIRI 200196795  
OKONX 97600  
Moliya Vazirligi G'aznachiligi  
G'azna x/v 23402000300100001010  
Bankning nomi: Markaziybank XKKM  
Toshkent MFO 00014 Moliya vazirligi  
G'aznachiligi STIRI : 201 122 919  
Tashkilot rahbari  
(lavozimi)

